



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 513 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish	419
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari	424
Raxmonova Feruza Musakulovna	
Turizm sohasida investitsion faoliyat: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar.....	428
Ergashev Durdonaxon Aziz qizi	
Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar tahlili.....	432
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsion resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar.....	436
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Xususi banklar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning moliya bozoriga ta'siri	441
Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li	
Mehnat resurslari tushunchasi, tarkibi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	447
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Xorijiy davlatlar tajribasida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.....	453
Jabborova Dilafruz	
The impact of exchange rate policy on the financial-monetary system and economic growth.....	459
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
Современные вызовы и модельные подходы к обеспечению конкурентоспособности банковской системы Узбекистана.....	464
Юлдашева С.Ш.	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish yo'llari	470
Ishimova Mohinur Absalomovna	
Innovative pathways for advancing sustainable tourism in Uzbekistan.....	477
Feruz Karimov	



Tijorat banklarida biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari.....	482
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy-me'yoriy asoslari	488
Vafojev Akmal Ikromovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishda Germaniya tajribasi	493
Pardayeva Maftuna Ulug'bek qizi	
Korxonalar moliyaviy faoliyati bo'yicha auditorlik risklarini xalqaro standartlar asosida baholash	497
Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abduxalil-zoda Ra'no Muzaffar qizi	
Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	501
Sodiqov Mirahrer Abbos o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati.....	509
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	



UDK: 33.2964

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY BUDJETLARNING AHAMIYATI

Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetning ahamiyati, mahalliy budjet daromadlarini oshirishda soliq ma'muriyatchiligining o'rni, ularning barqarorligini ta'minlash uchun mahalliy budjet soliq daromadlari undiruvchanligini oshirish yo'llari hamda soliqlarni yig'ish jarayonida shaffoflik, qonunchilikka rioya qilish va samaradorlikni oshirish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, soliq ma'muriyatchiligi, soliqlar.

Abstract: This article discusses the importance of the local budget in the socio-economic development of regions, the role of tax administration in increasing local budget revenues, and ways to improve the collection of local budget tax revenues to ensure their stability. Particular attention is given to transparency, compliance with legislation, and improving efficiency in the tax collection process.

Key words: local budget, socio-economic development, tax administration, taxes.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение местного бюджета в социально-экономическом развитии регионов, роль налогового администрирования в увеличении доходов местного бюджета, а также пути повышения собираемости налоговых доходов местного бюджета для обеспечения их устойчивости. Особое внимание уделяется вопросам прозрачности, соблюдения законодательства и повышения эффективности в процессе сбора налогов.

Ключевые слова: местный бюджет, социально-экономическое развитие, налоговое администрирование, налоги.

KIRISH

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning barqarorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy budjetda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'larning sarf yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy budjet daromadlari mahalliy soliq va yig'imlar hamda to'lovlardan shakllanadi. Mahalliy budjet mablag'lari hududiy rivojlanishning moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budjet — davlat budjetining tegishli viloyat, tuman va shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir. Har bir mamlakatda mahalliy budjet davlat budjetining ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budjet mablag'lari yetarli emasligini, buning uchun soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. Mamlakatimizda hududlarning rivojlanishi uchun mahalliy budjet daromadlarini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq daromadlari undiruvchanligini kuchaytirish talab etiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mahalliy budjetga bo'lgan e'tibor yanada ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V. Voxobov va X. Jamolov budjetlararo munosabatlarni tartibga solish mamlakat moliyaviy barqarorligining asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlaydi [4]. Fikrimizcha, budjetlararo munosabatlarning uyg'unligi resurslarni hududlar o'rtasida adolatli taqsimlashga xizmat qiladi.

T. Malikov soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbai sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [5]. Uning fikricha, soliq siyosatini samarali tashkil etish nafaqat budjet daromadlarini oshiradi, balki iqtisodiy o'sishga ham turtki beradi.

V. Gaspar, L. Jaramillo va M. Wingender tadqiqotlarida soliq salohiyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi funksional bog'liqlik tahlil qilinadi [6]. Mualliflar soliq yukining ma'lum chegaradan oshishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadilar.



C. Kuo tadqiqotlarida soliqlarni undirish salohiyatini baholash davlat moliya siyosati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi [7]. Muallifning fikricha, soliq daromadlari va soliq salohiyatini aniq hisoblash davlat budjetining barqarorligini ta'minlashda zaruriy shart hisoblanadi.

C. Pessino va R. Fenochietto mamlakatlarning soliq salohiyatini aniqlash orqali ularning fiskal siyosati samaradorligini baholash mumkinligini ta'kidlaydi [8]. Ularning fikricha, soliq harakatini o'lchash davlatning soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduksiya va induksiya, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usul hamda tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjetning mavqeini yanada oshirish hukumatimizning budjet siyosati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir. Bu borada ularni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Mahalliy budjet rejasini shakllantirish va mablag'larni sarflash miqdori viloyat, tuman hamda shahar hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Mahalliy budjet orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadi. Mahalliy budjet O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilishining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil budjetni mujassamlashtiradi.

O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlari rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, avvalo, boshqaruv tizimi tarkibini o'zgartirishni hamda bu jarayonlarda mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirishni talab qiladi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shubhasiz, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi mahalliy budjet hisoblanadi. Davlat budjeti tarkibida Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri budjeti, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. O'zbekiston Respublikasi budjeti bir butun bo'lib, budjet tizimi barcha bo'g'inlarning uzviy birligini anglatadi. Unga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tuman budjetlari kiradi.

"Mahallabay" o'rganishlar asosida yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ular o'rtasida madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida barcha tuman va shaharlarda "Yoshlar dasturlari"ni amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Mazkur tizim orqali ish bilan band bo'lmagan yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratish muhim omil hisoblanadi.

Mahalliy budjet Budjet kodeksiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat budjeti, viloyatlar budjeti hamda ularga kiruvchi quyi (shahar, tuman) budjetlarni o'z ichiga oladi. Ularning daromad va xarajatlari tarkibi, budjet jarayoni va budjet huquqi qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjet tizimi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari hamda tuman va shahar budjetlaridan iborat.

Xorijiy davlatlarda mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi maxsus pul fondlarining soni va mahalliy budjet tizimidagi salmog'i ancha yuqori. Ular avtonom mustaqillikka egaligi, markaziy hukumat tomonidan qattiq nazorat qilinmasligi, doimiy yoki vaqtinchalik, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab tuzilishi bilan xarakterlanadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari joylardagi davlat boshqaruv idoralari hisoblanadi. Ular mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z vakolatlari doirasida mustaqil hal etadilar, umumdavlat manfaatlarini hudud aholisi manfaatlari bilan uyg'unlashtiradilar va yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliq va yig'imlarni belgilash hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishni ta'minlash uchun budjetlararo munosabatlarning optimal tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy budjet daromadlarining shakllanishi prinsip va metodlar asosida turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlanishi, xarajatlarni moliyalashtirish vakolatlarining budjet darajalariga birlashtirilishi kabi masalalar dolzarb o'rin egallaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, o'tish bosqichidagi bir qator unitar davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi budjet tizimida ham asosiy muammolardan biri — mahalliy budjet daromadlari ulushining nisbatan pastligi va aksincha, budjetlararo munosabatlar roliga yuqori darajada tayanishdir.



Shuningdek, turli pog'onadagi budgetlar o'rtasida moliyaviy vositalar oqimining yuzaga kelishi ham ta'minlanadi.

Mahalliy budget orqali asosan ijtimoiy xarajatlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunga kelib mahalliy budget xarajatlarining qariyb 85–90 % ini ijtimoiy soha xarajatlari tashkil etadi. Mahalliy budget xarajatlarni qoplash uchun yetmasligi sababli, umumdavlat solig'idan ajratmalar va transfert mablag'lar ajratish orqali shakllantiriladi.

Hududlarda mahalliy budget daromadlarini oshirish soliq potentsiali tushunchasi bilan bevosita bog'liqligi ko'rinadi. Jumladan, budget daromadlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar o'tgan yillar kesimida Davlat budjeti va mahalliy budget daromadlari qismiga tushgan tushumlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tegishli qarorlarni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv jarayonlari iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solishda davlatning roli yanada kuchaymoqda. Bu jarayonda soliq tizimi davlatning asosiy iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki soliqlar nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantiradi, balki ular xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish, qayta ishlab chiqarish jarayonlari va milliy mahsulotni taqsimlashda ham faol ishtirok etadi.

Shu nuqtayi nazardan, hududlarda soliq munosabatlarini o'rganish bo'yicha nazariy tadqiqotlar nafaqat soliq tizimi va uning institutsional tartibga solinishi, balki hududiy soliq potentsiali va uni baholash usullarini qamrab oladi. Bu kabi tadqiqotlar soliq siyosatining maqsadli va samarali yo'naltirilishi, soliqqa tortish salohiyatini to'liq aniqlash, hamda davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Shu bois, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida soliq siyosatini ilmiy asoslangan holda yuritish, xususan, hududiy darajada soliq potentsiali va uning amalga oshirish mexanizmlarini chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida mahalliy budget daromadlari bazasini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, hududlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish kabi muhim vazifalar belgilangan bo'lib, mazkur vazifalarni ta'minlashda rivojlangan davlatlar ilg'or tajribasini o'rganish, ularning ijobiy natijalarini respublikamizda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida soliq tizimi moliya yili davomida mamlakat hududlari bo'yicha yagona soliqqa tortish shartlarini qo'llagan holda davlat hokimiyati organlari tomonidan yig'ilgan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan davlat budjeti daromadlari tushuniladi.

Mamlakatimizda soliq siyosati ilmiy munozaralar markazidagi masalalardan biri hisoblanadi. Xorijiy tajribalarga asosan ilm-fanida mazkur iqtisodiy kategoriyaning mohiyati bo'yicha yondashuv va qarashlarni mujassamlashtirgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini mintaqalashtirish jarayonlari kengayib bormoqda. Yuqoridagi jarayonlarni boshqarish hokimiyat organlaridan hududiy davlat boshqaruv organlari ixtiyoriga o'tkazilgan holda, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojlanib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur".

Mamlakatimiz raqamli iqtisodiyotga rivojlanayotgan sharoitda iqtisodiyotni barqarorlashtirish jarayonida soliq tizimiga e'tibor bilan qarash va uni davr talabiga moslab takomillashtirish eng muhim masala bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son'li Farmoni bilan, quyidagilar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, Respublika Davlat budjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3802378>



soliq solish masalalarini tartibga soladigan havoalaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliq va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan, soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining ajralmas qismi bo'lib, ularning asosiy vazifasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyalashtirishdan iborat. O'zbekistonda mahalliy budjetlar tizimi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda shahar va tuman budjetlaridan tashkil topadi. Bugungi kunda mahalliy budjet xarajatlarining katta qismi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotgani ularning ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, mahalliy budjet daromadlarining nisbatan pastligi hamda budjetlararo munosabatlarning yuqoriligi mavjud muammolardan biridir. Bu holat hududiy boshqaruv organlarining moliyaviy mustaqilligini cheklaydi va ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'liq bajarish imkoniyatini kamaytiradi. Shu bois, budjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, hududiy soliq salohiyatini oshirish va mahalliy darajada mustaqil moliyaviy manbalarni kengaytirish zarur.

O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezidentning PF-5468-sonli farmonida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi aniq belgilab berilgan bo'lib, u mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investorlar uchun qulay sharoit yaratish hamda davlat moliya tizimini zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvar kungi 23-sonli Qarori "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
4. Voxobov V.A. Jamolov X.N. "Согласование межбюджетных отношений". Финансы 2002 года.
5. Маликов, Т. С. Налоги и налогообложение. – Ташкент: Молия, 2005. – 280 с.
6. Gaspar, V, Jaramillo, L., & Wingender, M. P. (2016). Tax capacity and Growth: Is there a Tipping Point. International Monetary Fund.
7. Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax capacity. / с. y. Kuo//JDI Executive Programs. - 2000.
8. Pessino, c., & Fenochietto, R. (2010). Determining countries tax effort.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
